


**Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya bo‘limi**



O‘zbekiston xalq yozuvchisi, dramaturg, noshir, Hamza mukofoti laureati, jamoat arbobi, publisist Odil Yoqubov (1926-2009) tavalludining 95 yilligiga “Zaxmatkash adib” nomli

TAVSIYAVIY RO‘YXAT

Farg‘ona – 2021

—

Odil Yoqubov
(1926-2009)

Odil Yoqubov 1926 yil 20 oktyabrda hozirgi Janubiy Qozog‘iston viloyati Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan — O‘zbekiston xalq yozuvchisi, 2-jahon urushi qatnashchisi. ToshDU filologiya fakultetini tugatgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, “Literaturnaya gazeta”ning O‘zbekistondagi maxsus muxbiri, “O‘zbekfilm” kinostudiyasi va O‘zbekiston davlat kinematografiya qo‘mitasida bosh muharrir, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi bosh muharriri, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining birinchi kotibi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasi raisi va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining birinchi vise-prezidenti bo‘lib ishlagan.

Dastlabki asari — “Tengdoshlar” qissasi 1951 yilda e‘lon qilingan. “Dastlabki qadam”, “Ikki muhabbat” hikoyalar to‘plami, “Tilla uzuk” qissa va hikoyalar to‘plamida muhabbatni insonga xos ulug‘, muqaddas xislat sifatida tasvirlaydi. “Muqaddas” qissasida Odil Yoqubovning chinakam yozuvchiga xos uslubi va yo‘li namoyon bo‘ldi. Mazkur asarda xudbinlik yo‘liga tusha boshlagan yigitning to‘g‘ri yo‘lga qaytishi masalasi qalamga olingan. “Er boshiga ish tushsa...” romani 2-jahon urushi davridagi front orqasidagi hayot, mehnat qahramonliklari, xalqimizning vatanparvarligi va mardligi haqida. “Bir felyeton qissasi”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Matluba” qissalari va ko‘pgina hikoyalarida yoshlarning turmushda yuz bergan ziddiyatlarga qarshi mardonavor kurashi, muhabbati tasvirlangan.

“Ulug‘bek xazinasi” romani olim va hukmdor Ulug‘bek davridagi ijtimoiy munosabatlar, olis o‘tmishimizdagi nur va zulmat o‘rtasidagi kurash haqidagi asardir. Romanda ayanchli taqdirlar, fojialar ko‘p, ammo optimistik ruh — inson tafakkuri va ezgulikning tantanasiga ishonch bor.

“Ko‘hna dunyo” romanida o‘rta asrda yashab jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimlar Ibn Sino va Beruniyning fojiali taqdiri qalamga olingan. “Diyonat”, “Oq qushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili” romanlarida o‘zbek xalqining 20-asrning 60—70-yillaridagi hayoti va kurashi manzaralari haqqoniy tasvirlangan. Garchi bu asarlarning asosiy qahramonlari turli sohalarining vakillari, xarakterlari ham turlicha bo‘lsa-da, taqdirlari, maqsad va intilishlari bilan bir-birlariga o‘xshaydilar. Ular nobob tuzumda yashab ko‘p nohaqliklarni, fojialarni boshdan kechirgan, ammo tinmay mehnat qilgan va kurashgan, milliy mustaqillik poydevorini qurgan, mustahkam irodali, mard va olijanob insonlardir. Odil Yoqubov mazkur romanlari bilan o‘zbek nasridagi ijtimoiy ruh, keskin konflikt, xarakterlar, psixologizmni sezilarli darajada kuchaytirdi, uni yangi xarakterlar, yangi badiiy xulosalar bilan boyitdi.

Odil Yoqubov “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim, aytmam dilim kuyadi”, “Yurak yonmog‘i kerak”, “Olma gullaganda”, “Muzaffar Temur”, “Bir koshona sirlari” kabi pyesalar, “Dilbarim”, “Bahor yomg‘irlari” kinossenariylari muallifi.

Odil Yoqubov mohir tarjimon, munaqqid, publisist. Uning Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Abdulla Oripov va boshqalar

ijodiga bag'ishlangan adabiy portret va maqolalari bor. Asarlari chet tillarga, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillariga tarjima qilingan. Odil Yoqubov ijodi haqida adabiyotshunoslar Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Leonid Terakoyan, Umarali Normatov, Norboy Xudoyberganov, Botir Norboyev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari qilishgan.

Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, "Do'stlik", "El-yurt hurmati" ordenlari bilan mukofotlangan.

Axborot kutubxona markazi tomonidan O'zbekiston xalq yozuvchisi, dramaturg, noshir, Hamza mukofoti laureati, jamoat arbobi, publisist Odil Yoqubov (1926-2009) tavalludining 95 yilligiga "Zaxmatkash adib" nomli bibliografik qo'llanma tayyorlandi. Ushbu tavsiyaviy ro'yxatdan o'qituvchilar, kutubxonachilar, talabalar va Odil Yoqubov hayoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, dramaturg, noshir, Hamza mukofoti laureati, jamoat arbobi, publisist Odil Yoqubov hayoti va faolyatining asosiy sanalari.

- 1926 yil 20 oktyabrda** – hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyati Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan
- 1956 yil** – ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universitet)ning filologiya fakultetini tugatdi
- 1951 yil** – Dastlabki asari — "Tengdoshlar" qissasi e'lon qilingan
- 1955-1959** – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi
- 1959-1963** – "Literaturnaya gazeta"ning O'zbekistondagi mahsus muxbiri
- 1963-1967** – "O'zbekfilm" kinostudiyasi va O'zbekiston davlat kinematografiya qo'mitasida bosh muharrir
- 1970-1982** – G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari
- 1982-1987** – "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri
- 1987-1991** – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining birinchi kotibi
- 1991 yildan** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasi raisi
- 1995 yildan** – Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining birinchi vise-prezidenti
- 1977 yil** – Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati
- 1985 yil** – O'zbekiston xalq yozuvchisi
- 1994 yil** – "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan
- 1998 yil** – "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan
- 2009 yil** – vafot etgan.

Odil Yoqubov asarlari

1953

Yoqubov, O. Tengdoshlar : / O. Yoqubov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1953. – 104 b.

Ushbu kitobda Odil Yoqubovning “Tengdoshlar” nomli asari berilgan.

1958

Yoqubov, O. Pyesalar / O. Yoqubov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. – 150 b.

Odil Yoqubovning ushbu kitobida “Chin muhabbat” nomli 3 parda 5 ko‘rinishli pyesasi kiritilgan.

1959

Yoqubov, O. Ota izidan : / O. Yoqubov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. – 136 b.

Odil Yoqubovning ushbu kitobida “Ota izidan” nomli asari berilgan.

1962

Yoqubov, O. Larza : / O. Yoqubov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962. – 238 b.

Odil Yoqubovning “Larza” nomli asarida inson uning qadr-qimmatini uchun kurash va bunda haqiqatning tantana qilishi haqida fikr yuritilgan.

1964

Yoqubov, O. Bir felyeton qissasi : / O. Yoqubov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1964. – 188 b.

Yozuvchi Odil Yoqubovning bir felyeton qissasi yoshlarga bag‘ishlangan.

1966

Yoqubov, O. Er boshiga ish tushsa : Roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1966. – 280 b.

Ushbu kitobga yozuvchining “Er boshiga ish tushsa” romani kiritilgan. Romanda yozuvchi asosan urush davridagi mexnatni mashaqqatligini tasvirlab beradi. Roman keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1974

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasi : Roman / O. Yoqubov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974. – 320 b.

1975

Yoqubov, O. Billur qandillar / O. Yoqubov. Farzandlar burchi: Etyudlar : Qissa / O. Yoqubov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1975. – 216 b.

Ushbu kitobda Odil Yoqubovning “Billur qandillar” qissasi bugungi yoshlarning hayoti va sevgisi haqida hikoya qiladi.

1977

Yoqubov, O. Tanlangan asarlar : Uch tomlik / O. Yoqubov. T.2 Roman, qissa, hikoyalar / Muharr. J. Nasriddinova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977. – 480 b.

Ushbu kitobda taniqli o‘zbek adibi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asari berilgan.

Yoqubov, O. Izlayman / Qissa. Hikoyalar : Roman / O. Yoqubov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977. – 476 b.

Ushbu kitobga yozuvchi Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa” romani “Izlayman” qissasi va bir nechta hikoyalari kiritilgan. Kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1978

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasi : Roman. Etyudlar, Hikoyalar / O. Yoqubov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978. – 464 b.
Taniqli o‘zbek adibi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” nomli tarixiy mavzuda yozilgan romani o‘quvchilarning sevimli asarlaridan biridir.

1979

Yoqubov, O. Diyonat : Roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – 288 b.
Ushbu kitobga Odil Yoqubovning “Diyonat” romani kiritilgan. Roman keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1980

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasi : Roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980. – 368 b.
Ushbu kitobda Mirzo Ulug‘bek davrining ichki ziddiyatlari to‘g‘risida oddiy xalq vakillarining turmushi haqida keng tassavur beradi.

1983

Yoqubov, O. Ko‘hna dunyo : Roman / O. Yoqubov; Muharr. T. Alimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983 (Matbuot). – 336 b.
Ushbu romanda yozuvchi ikki buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy bilan Abu Ali ibn Sino hayoti haqida hikoya qilinadi. Roman keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1986

Yoqubov, O. Ko‘hna dunyo : Saylanma / O. Yoqubov T.1 Roman, qissa, hikoyalar / Muharr. T. Norov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986. – 512 b.
Ushbu kitobda yozuvchining “Ko‘hna dunyo” romani hamda qissa va hikoyalari berilgan.

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasasi : Saylanma Uch jildlik / Odil Yoqubov T.2 Roman Qissa / Muharr. N. Sodikov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986 (Matbuot). – 528 b.

Mazkur jilddan adibning mashxur “Ulug‘bek xazinasasi” romani shuningdek “Qanot juft bo‘ladi” qissasi o‘rin olgan.

1987

Yoqubov, O. Er boshiga ish tushsa : Saylanma / Odil Yoqubov T.3 Roman. Qissalar. Hikoyalar. Etyudlar / Muharr. X. Mansurov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987 (Matbuot). – 528 b.

Ushbu uch jildlik saylanmada yozuvchining roman, qissa, hikoya, etyudlari berilgan.

1988

Yoqubov, O. Oq qushlar, oppoq qushlar : Roman / O. Yoqubov; Muharr. M. Ahmedova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988 (Matbuot). – 336 b.

Ushbu romanda xalollik, poklik bilan kechirilgan umr ming mashaqqatlarga duch kelsa xam pokligicha qolganligi haqida so‘z boradi. Kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1994

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasasi : Roman / O. Yoqubov; Muharr. M. Yo‘ldoshova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994 (Matbuot). – 336 b.

Ushbu asarda allomaning shaxsiy hayoti, fojeaviy qismati haqida hayajon bilan hikoya qilinadi. Kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

1998

Yoqubov, O. Diyonat : XX asr o‘zbek romani / O. Yoqubov; Muharr. X. Sultonova. – Toshkent: Sharq, 1998. – 352 b.

Asarni o‘qib chiqqan kitobxon unda zo‘r mahorat bilan tasvirlangan Shomurodov qismati, o‘limi fojia ekanini anglaydi. Adibimiz Vatan istiqlolini o‘zining sermahsul va ibratli mehnati bilan qarshi oldi. Bu mehnat samarasining go‘zal namunalaridan biri “Diyonat” romanidir.

2002

Yoqubov, O. Qaydasan Mariko : Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar / O. Yoqubov. – Toshkent: Sharq, 2002 (Matbaa). – 432 b.

Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko” kitobida qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar maqolalar berilgan.

2007

Yoqubov, O. Tanlangan asarlar : 2 jild / O. Yoqubov T.2 Ulug‘bek xazinasi : Roman / Muharr. M. Mansurov. – Toshkent: Sharq, 2007. – 352 b.

Biz kitobxonlarning yangi avlodiga asarning kayta ishlanib to‘ldirilgan va mukammal holda keltirilgan 1994 yilgi variantini taqdim qilmoqdamiz.

2013

Yoqubov, O. Ko`hna dunyo : roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Sharq, 2013. – 384 b. Ushbu romanda yozuvchi ikki buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy bilan Abu Ali ibn Sino hayoti haqida hikoya qilinadi. Roman keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

2014

Yoqubov, O. Billur qandillar : qissalar va hikoyalar / O. Yoqubov; Muharr. F. Quvonova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 332 b.

Odil Yoqubovning - o‘tgan asrning oltmishinchi - yetmishinchi yillari yoshlarning sevimli adiblaridan biri edi. “Billur qandillar”, “Muqaddas”, “Muhabbat” kabi qissalar o‘sha davr o‘quvchilarining ahloqiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ma’noda ta’sir etgan, desak xato bo‘lmaydi.

2015

Yoqubov, O. Ko`hna dunyo : roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Sharq, 2015. – 384.

Yoqubov O. Vido = Vido : hikoyalar / O. Yoqubov. – Toshkent: O'zbekiston , 2015. – 192 b

“Hikoyalar xazinasi” rukni ostida “Vido” kitobiga adibning eng sara hikoyalari jamlangan bo‘lib, ushbu hikoyalarda turli xarakterdagi insonlarning taqdiri, kechinmalari, o‘y-fikrlari, voqyea-xodisalar o‘ziga xos san’atkorona tarzda hayotiy tasvirlangan. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o‘sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va atamalar nomi asliyatga asosan qoldirildi.

2016

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasi : roman / O. Yoqubov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016. – 456 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” nomli asari siz o‘quvchilarga yaxshi tanish. Asarda bobokolonimiz Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning shaxsiy hayoti, fojiviy qismati haqida hayajon bilan hikoya qilinadi.

2018

Yoqubov, O. Ko‘hna dunyo : roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 432 b.

Yoqubov, O. Osiy banda / O. Yoqubov. Xotiralar. – Toshkent: O`zbekiston, 2018. – 192 b.

Muallif hayotda ko‘rgan, bilgan, boshidan kechirgan voqyealarni xaqqoniy badiiy tarixga, real shaxslarni esa o‘zida davr muxrini tashigan, davrning yulduzi va sayyorasi bo‘lgan jozibador, badiiy go‘zal, yuksak darajada ibratli qahramonlarga aylantiradi.

Yoqubov, O. Vido : hikoyalar / O. Yoqubov. – Toshkent: O`zbekiston, 2018. – 192 b. Odil Yoqubovning “Vido” kitobida turli xarakterdagi insonlarning taqdiri, kechinmalari, o‘y-fikrlari, voqyea-xodisalar o‘ziga xos san’atkorona tarzda hayotiy tasvirlangan. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o‘sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va atamalar nomi asliyatga asosan qoldirildi.

2019

Yoqubov, O. Soʻz : maqolalar, suhbatlar, intervyular, nutq va maʼruzalar, maktublar / O. Yoqubov. – Toshkent: Sharq NMAK, 2019. – 496 b.

Yoqubov O. Dionat : Roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Qaldirgʻoch, 2019. – 376 b.

2020

Yoqubov, O. Billur qandillar : Qissa va hikoyalar / O. Yoqubov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 320 b.

Odil Yoqubovning matbuotda chop etilgan maqolalari

Jurnallar

1986

Yoqubov, O. Oqqushlar, oppoq qushlar : [Odil Yoqubovning "Oqqushlar oppoq qushlar" nomli romani berilgan] / O. Yoqubov // Sharq yulduzi. – 1986. – № 7. – B. 19.

Gazetalar

2009

Yoqubov, O. Irodasiga qoyil qolganman : Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov [Ozod Sharafiddinov tavalludining 80 yilligi] / O. Yoqubov // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. – 2009. – 23 yanv. – B. 4.

2015

Yoqubov, O. Qaydasan, Moriko? : [sahifalarda Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko?” hikoyasi berilgan] / O. Yoqubov // Kitob dunyosi. – 2015. – 28 okt. – B. 2-7.

Yoqubov, O. Onaizor : [sahifada O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Onaizor” hikoyasi berilgan] / O. Yoqubov // Kitob dunyosi. – 2015. – 25 mart. – B. 3.

2018

Yoqubov, O. Yaxshilik : [hikoya] / O. Yoqubov // Kitob dunyosi. – 2018. – № 1. – B. 3.

Odil Yoqubov haqida matbuotda chop etilgan maqolalar

Jurnallar

1996

Qodirov, P. Tog‘ yo‘llarida : [maqola Odil Yoqubov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan] / P. Qodirov // Sharq yulduzi. – 1996. – № 5. – B. 5-7.

Qurbonov, T. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romanida qahramonlar qiyofasi : [maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romanida qahramonlar qiyofasi tahlil qilingan] / T. Qurbonov // Til va adabiyot ta‘limi. – 1996. – № 3. – B. 57-65.

2001

Otayev, R. El ardog‘idagi yozuvchi : [maqola sermahsul, zaxmatkash yozuvchilarida biri Odil Yoqubov haqida] / R. Otayev // Til va adabiyot ta‘limi. – 2001. – № 5. – B. 55-64.

2004

Sodiqova, X. Odil Yoqubov dramalari tanqidchilik talqinida : / X. Sodiqova // Til va adabiyot ta‘limi. – 2004. – № 2. – B. 56-63.

2006

Karimov, N. Zabardast adib : [maqola Odil Yoqubov ijodi haqida] / N. Karimov // Til va adabiyot ta'limi. – 2006. – № 6. – B. 69-82.

2016

Odil, diyonatli adib : [o'zbek adabiyotining taniqli adiblarining Odil Yoqubov haqidagi fikrlari berilgan] // Yoshlik. – 2016. – № 10. – B. 33-35.

1998

Rahimov, Z. Zaxmatkash adib : [maqola O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov hayoti va ijodi haqida] / Z. Rahimov // Til va adabiyot ta'limi. – 1998. – № 5. – B. 57-60.

Gazetalar

2009

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov : Nekrolog [O'zbekiston xalq yozuvchisi, atoqli adib Odil Yoqubov vafoti haqida] // Xalq so'zi. – 2009. – 22 dek. – B. 3.

2011

Yo'ldosh, K. Shiddat : [Atoqli adib Odil Yoqubov ijodi haqida] / K. Yo'ldosh // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2011. – 28 okt. – B. 3.

2013

Otabek, Sh. Buyuk tuyg'u bilan yashadi : [Maqola O'zbekiston Xalq yozuvchisi Odil Yoqubov ijodiga bag'ishlangan] / Sh. Otabek // Kitob dunyosi. – 2013. – 8 may. – B. 4.

2016

Izlanishlar bardavom : [Farg‘ona viloyat Zavqiy jamg‘armasi shoirning hayoti va ijodini o‘rganishda olib borayotgan ishlari haqida] // Qalb sadosi. – 2016. – № 34. – B. 2.

Tuzuvchi : G. Valiyeva.